

**QISHLOG'IMNI  
BAHORDA KO'RING!**

He-he-hey! Qishlog'imga bahor keldi. Dugonalarim bilan adirlarga chiqib, bir-birimizni bayram bilan qutladik.

Qishlog'imiriga Siz ham keling, gullar qo'ynida o'ynaymiz.

Lobor MAMATQULOVA,  
Sirdaryo viloyati,  
Guliston shahridagi  
18-maktab o'quvchisi

**KITOBGA  
BAG'ISHLANGAN KUN**

Maktabimizda Yurtboshimizning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asari bo'yicha darslar, tadbirlar, asarga bag'ishlangan kunlar o'tkazilib, o'quvchilarimiz taassurotlarini o'zaro o'rtoqlashishdi. O'qituvchilardan Matluba opa Kazakova, kutubxona mudiri Hafiza opa Hamroyevalarning mehnatlarini Dilobar Ro'ziyeva, Shahboz Bahromov, Aziza Ne'matullayevalar o'z bilimdonliklari bilan yuzaga chiqarib berishdi.

J.NURMURODOV,  
Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on  
tumanidagi 34-maktab rahbari

**«DAQIQA QADRI»**

Dadam yaqinda mena shu nomdagi kitobni sovg'a qildilar. Unda «Zakovat» teleo'yinidagi savollar jamlangan ekan. Savollardan biri mena juda yoqdi. Qani, uning javobini siz ham topingchi:

«Qadimgi Rimda ilm bilan muntazam shug'ullanigan kishilarni qanday nomlashgan?» Sizga yordam tariqasida aytishim mumkinki, bu so'z oliv o'quv yurtlarida ko'p ishlataladi.

Dilyor TO'YCHIYEV,  
Toshkent shahri, Mirobod tumanidagi  
110-maktabning 7-sinf  
o'quvchisi

*Teng*

# YULDUZI

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiga boshlagan

ISSN – 2010-6092

## DUSHANBADAN

### MUSHTARIYNI BILASIZMI?



Iste'dodli, so'zga chechan, o'ta odobli bu qiz bilan tanishishni istasangiz, gazetamizni kuzatib boring.

Mushtariy bu yil 9 yoshga to'ldi. Ammo shu yoshida ancha-muncha ish qilib qo'ydi. Qanday ish deysizmi? Gazetamizni kuzatib boring,

hademay bilib olasiz!

### SOVG'A


Quruvchi akalaringizning yaxshi an'analari bor. Ular Samarqand viloyati Pastdarg'om tumanidagi Usmonobod qishlog'ida qurilayotgan maktabni eng ulug', eng aziz Mustaqillik bayrami arafasida foydalanishga topshirishmoqchi. Mazkur qishloq bolalari uchun bundan ortiq katta sovg'a bo'lmasa kerak.

### NILUFAR TAHRIRIYATIMIZ MEHMONI

Aktrisa Nilufar Hamidovaning yaratgan obrozlari yosh singillarimizning ko'nglidan joy olmoqda. Kuni kecha u tahririyatimizda mehmon bo'lib, muxbirimiz savollariga javob berdi. Suhbat keyingi sonlarda e'lon qilinadi.

### QAYTA CHOP ETILDI

Mamasoli Jumaboyevning «Bolalar adabiyyoti» kitobi 2001-yilda chop etilgan edi. Yaqinda ushbu kitob «O'qituvchi» nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan qayta chop etildi. Kitob haqidagi batafsil ma'lumotlarni gazetamizning keyingi sonlarida o'qisiz.



## DUSHANBAGACHA

## Bayramningiz mulborak, buvijon!



Toshkent viloyatining Bo'ka tumaniga yo'lingiz tushsa, «O'zbek» mahallasida istiqomat qiladigan Maryam opa Sattorovani surishtiring. Opaning nomini nafaqat mahallada, balki tumanda ham katta-yu kichik hurmat bilan tilga oladi. Tumandagi 21-sonli umumta'lim maktabida 40 yildan ortiq mehnat qilib, minglab o'quvchilarga ta'lim-tarbiya bergen ustoz bundan-da yuksakroq ehtiromga loyiq, aslida.

Olti nafar farzandning mehribon onasi, 16 nabiraning bag'rikeng buvijonisi, ayni damda, keksalik gashtini surayotgan Maryam opa hamon tinib-tinchimaydilar. Tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan o'g'il-qizlarga bosh, mahalla xotin-qizlarining eng yaqin maslahatgo'y.

**Suratda:** Onaxonni farzandlari, nabiralari hamda shogirdlari bahor ayyomlari bilan muborakbod etishyapti.

Husanboy AVVALOV o'lgan surat

**Kompyuter  
o'yinchoq  
emas**

2-bet

**Qizlar  
akademiyasi**

4-bet

**Gapimizga  
parvo  
qilmadi**

7-bet



2009 Tong yulduzi  
9-mart

## Kimki ustozini tinglamas ekan, ana shunday kulgili holatga tushadi

### NEGA CHILONZOR?

Aziz bolalar! Biz sizlar uchun Toshkent shahri tarixiga oid ma'lumotlarni ketma-ket berib boryapmiz. Sizlardan kelayotgan xatlar orqali ulardan foydalanayotganingiz haqidagi bilib, xursand bo'lyapmiz. O'z tarixini bilish ona yurtga nafaqat havas uyg'otadi, balki qalbda g'urur va istixor tuyg'ularining uyg'onishiga ham turki bo'ladi. Bu gal sizlar Chilonzor so'zining kelib chiqishi

haqida so'rabsiz. Rivoyatlarga ko'ra, o'sha atroflarda Jilon ota degan anchayin savodli, ma'rifatparvar kishi yashagan. Ut tabobatdan ham yaxshigina xabardor bo'lган, shifobaxsh o'simliklar, xususan, chilonjiyda bog'ini barpo etgan. Ma'lumki, chilonjiyda tabobatda qon kasalligiga davo hisoblanadi. Mavzeyning Chilonzor deb atalishi shundan kelib chiqqan, deyishadi.



$$5+5=10 \quad 10-8=2 \\ \text{MATEMATIK HANGOMA} \quad 5 \\ 2 \times 2 = 4 \quad 10:5=2$$

Ha, hatto matematika faniga oid hangoma ham yozish mumkin. Maktabimizda o'tkazilgan matematika kechasida ularning zo'rlaridan eshitdir. Topishmoqlar deysizmi, hammasi shu fanga bag'ishlandi. Biz «Yosh matematik» to'garagi a'zolari ustozimiz Shohista opa Yusupova bilan shunday ajoyib tadbir o'tkazdikki, maktabimiz direktori bizga «Faxriy yorliq» topshirib, turli sovg'alar ulashdilar.

Fotima va Zuhra MAMADALIYEVA,  
Farg'on'a viloyati, Oxunboboyev  
tumanidagi 21-maktabning 5-«A» sinf o'quvchilari

### ENG SAVODLI O'QUVCHI

Kanzas shtatidagi maktablardan birining yuqori sinf o'quvchisi nazorat ishida yo'l qo'yilgan orfografik xatoni o'z vaqtida ilg'agani uchun mashhur bo'lib ketdi, deb xabar berdi «YUPI» agentligi.

«Vichitas Ist» nomli ilm maskanida o'qiydigan 17 yoshli Jeffri Stenford o'ziga berilgan test topshirig'idagi xatoni topib, bu haqda o'qituvchiga aytgan. Pedagog esa o'z o'rnida mazkur kamchilikni tuzatish uchun shtatning ta'limgardagi murojaat qilgan. Bu voqeadan so'ng Stenford amerikalik o'quvchilar orasida mashhur bo'lib ketdi.

### TO'QQIZ YOSHLI DAHO

Singapurlik Lim Din Ven «Apple Iphone» smartfonini uchun ilova, dastur tuzdi.

«Doodle Kids» nomli ilova grafik muharriri bilan barchaga manzur bo'ldi. Uni Apple saytidan ikki haftaning ichida to'rt ming marta ko'chirib olishgan.

Lim Din Ven bir necha dastur tuzgani haqida agentlik xabar bermoqda. Lekin «Doodle Kids» nomlisi juda ommalashgan. Uning ishlashi juda oddiy. Iphone ekranida barmoqlar yordamida chizish va smartfonni qoqish yordamida tasvirni o'chirish mumkin.

To'rtinchisini sinfda o'qiydigan muallifning so'ziga qaraganda, bu dastur aynan uning kichik yoshdagi singillari uchun tuzilgan ekan. Bunga ularning rasm chizishni juda yaxshi ko'rishi sababchi bo'lgan. Bolakay dasturlashning 6 tilini yaxshi biladi, kompyuterdan esa ikki yoshidan foydalanishni boshlagan.

Toshkentning 2200 yilligiga

Bugun hayotni kompyutersiz tasavvur qilish qiyin. Har bir ishxonada, matabda, qolaversa, uydai ham u hojatbaror. U bilan ta'limgardagi jarayoni, o'zaro muloqotlar, yangi gazeta va jurnal, kitoblarini mutolaa qilish mumkin. Xullas, turmushimiz kompyuter bilan chambarchas bog'liq bo'lib qoldi.

Lekin eng zamonaviy bu texnika vositasiga uzluksiz bog'lanib qolish, ko'p vaqtini u bilan o'tkazish aslo mumkin emas. Ayniqsa, keyingi vaqtida bolalar kompyuterni o'yinchaoq sifatida qabul qila boshladilar. Internet-klublarda bir necha soatlab turli o'yinlarni o'ynash bilan mashg'ul bo'lmoadalar.

Kompyuter olamining bosh ijodkori amerikalik Bill Geyts ham o'z bolasiga kompyuter oldida kuniga yarim soatdan ortiq o'tirishga ruxsat bermas ekan. Hatto yoshi katta odamlar ham kompyuterda 2 soatdan ortiq o'trib ishlashlari mumkin emas.

Bundan ikki yil muqaddam Moskva shahri hukumati yoshlarning mukammal ta'limgardagi oshlarini nazarda tutib, bolalar va o'smirlarning internet-klublarga kirishlarini ta'qilab qo'ydi.

Kompyuter bilan uzluksiz muloqot qilish, kuniga soatlab o'yinlar o'ynash, turli kinofilmalar ko'rish yosolar o'rtasida o'ziga xos «tarmoqmaniya» degan kasallikni keltirib chiqardi. Hozirgi kunda Xitoya ana shunday kasallikka chalingan minglab odamlar maxsus ochilgan kasalxonalarda davolanmoqdalar.

Xo'sh, bu kasallikning alomatlari qanday?



## KOMPYUTER

### O'YINCHOQ EMAS

Bolalarni kompyuterga umumani

yaqinlashtirmang, deyish bugun juda kulgili. Ammo hamma narsa me'yorida, o'z o'rnida bo'lmog'i kerak. Undan zarur paytdagina, shunda ham 20-30 daqiqa davomida foydalaniladi. Mutaxassislarining fikricha, 7-12 yoshli bola kompyuter qarshisida 10-15 daqiqa, 12-16 yoshli o'g'il-qiz esa 20 daqiqa o'tirishi mumkin, xolos.

Hozirgi kunda bu texnika vositasining yanada mukammal, tezkor beshinchi avlodiy yaratildi. Ulardan o'yinchaoq sifatida emas, murabbiy, do'st sifatida oqilona, maqsadli foydalanish lozim, siz nima deysiz, aziz bolajonlar?

Nargiza RAZZOQOVA

### FIZIKANI YOQTIRASIZMI?

Odatda ko'pchilik o'quvchilar fizika fanini unchalik yoqtirishmaydi. Sababi, u biroz murakkabroq-da. Lekin poytaxting Uchtepa tumanidagi 197-maktab o'quvchilari bu fanni juda yaxshi ko'rishadi. Buning boisi, fizika fani o'qituvchisi Feruza Nig'matovaning o'quvchilarini o'z faniga qiziqitira oqilana, har bir darsini ko'rgazmali qurollar, tajribalar asosida o'tishida bo'lsa kerak. Bu maktab o'quvchilarining ko'plab fan oyliklari, olimpiadalarida muvaffaqiyatlari qatnashib, faxrli o'rinnarni egallab kelishayotgani ham bejiz emas.



Kuni kecha 203-maktabda tuman miqyosida bo'lib o'tgan fizika fani oyligi yakuniga bag'ishlangan festivalda ham 1-o'rin 197-maktabning yosh fiziklariga nasib etdi. Maktab shafarini munosib himoya qilgan g'olib o'quvchilar puxta bilim bergani uchun mehribon o'qituvchilar Feruza opadan minnatdor bo'lsalar, ustoz esa ishonchini oqlagan shogirdlaridan mamnun.

Aziza AKBAR qizi

### ACHCHIQDAN- ACHCHIQ NIMA?



Qadimda bir amaldorning Oshkor tanbal degan o'g'li bor ekan. Bir kuni ularning shahriga Sehrgar bobo kelib, bolalarga har xil sovg'alar tarqata boshlabdi. Lekin u sovg'alarmi tekinga tarqatmas ekan. Har bir sovg'ani olish uchun bolalar bir necha sinovlardan o'tishlari kerak bo'larkan.

Sovg'a olish navbatni Oshkor tanbalga kelibdi.

Sehrgar bobo oltin qilqalamini ko'rsatib:

— Bu o'zi yozar qilqalam, uning mo'jizalari ko'p! — debdi.

Qilqalam Oshkor tanbalga yoqib, og'zi qulog'iga yetibdi. Bunday qilqalamni qo'lga kiritsam, yozuvlarimni yozib beradi, deb o'yabdi u va bu to'g'rida otasiga arzdod qilibdi.

Uning otasi odamlarini jo'natib, sovg'ani katta mablag' evaziga unga olib bermoqchi bo'libdi, ammo Sehrgar bobo bunga ko'nmabdi va Oshkor tanbalning o'zini imtihon qilishga chaqiribdi.

— Juda qiyamatman seni, oddiy savollar beraman, javob bersang, o'zi yozar qalam seniki! — debdi.

Oshkor tanbal katta qornini silkitib o'rta ga chiqibdi.

Sehrgar bobo unga:

— Non nimadan tayyorlanadi, bolam? — deb juda jo'n savol beribdi.

Oshkor tanbal shu ham savol bo'ldimi, deya katta qornini silkitib kulibdi va xizmatkorini ko'rsatib:



2009 Tong yulduzi  
9-mart

## *Yashirincha tayyorlayotgan sovg‘amiz ustozlarimizga manzur bo‘ladi, deb o‘ylaymiz*

# YANGI KUN

Asadulloning yig‘lab kelayotganini ko‘rgan bog‘cha mudirasi Gulchehra opa uni yupatib:

— Katta bolalar yig‘lamaydi. Ayniqsa, chiroqli rasm chizadigan bolalar yig‘lasa uyat bo‘ladi, — dedilar. Gulchehra opaning gaplarini eshitib, Asadullo birpasda ovundi. Bog‘cha opasi Olga Albertovnani ko‘rganida esa shoshib-pishib:

— Bugun rasm chizamizmi? — deya savol berdi.

— Rasm ham chizamiz, qo‘shiq aytib raqsga ham tushamiz. Hattoki eng yaxshi ko‘rgan multfilmingiz «Tom va Jerri»ini tomosha qilamiz, — dedi tarbiyachi opa tabassum bilan. Olga Albertovnaning javobi bolalarni xursand qilib yubordi.

Ana shunday qilib poytaxtimizdagi «Oftobcha» nomli 154-maktabgacha ta’lim muassasasida yangi kun ham boshlandi. Bu maskanga tashrif buyurganimizda, ko‘pincha bog‘cha mudirasi Gulchehra opa Nurmuhammedovani hovlida uchratamiz. Opa bog‘chaga kelayotgan har bir bolaning ismini adashmay aytadilar, ularning salomlariga kulib alik oladilar. Shundan bo‘lsa kerak, 13 nafar tarbiyachilarining barchasi Gulchehra opadan o‘rnak olib, nafaqat bolalar, balki ota-onalar bilan ham iliq munosabatda bo‘ladilar.

— Bolalar yangi kуни yaxshi kayfiyat bilan boshlasalar, kun davomidagi mashg‘ulotlarda faol ishtirok etishadi, — deydi Gulchehra opa. — Muassasada qo‘srimcha mashg‘ulotlar oliy toifali tarbiyachilar tomonidan olib boriladi. Bularidan ingliz tili, raqs, qiziqarli matematika, taekvando, mantiqiy fikrlash ijodiy to‘garaklariga



kichkintoylar qiziqib qatnashadilar. Ayni kunlarda raqs bo‘yicha o‘tkaziladigan «Oltin humo» tanloviya tayyorgarlik ko‘ryapmiz.

Bu dargohning tarbiyalanuchilar ham sog‘lom, ham polvon ekanlar. Shu sababli ular sportning taekvando turi bo‘yicha «Sog‘lomjon – polvonjon» bellashuvida g‘olib bo‘libdilar. Mashg‘ulotlardan biriga kirib, karate bilan shug‘ullanayotgan bolalarni kuzatdik. Bolajonlar ustozlari Mahmud Nazarov ko‘rsatib bergen harakatlarni qiyalmay bajarardilar. Harakatlarni ko‘ngildagidek bajargan bolalarni ustozlari «Kichkintoyim – polvonim» deya erkalab qo‘ydilar. Bunday maqtovdan kichkintoylar quvonib, qiyinroq harakatlarni ham qiyalmasdan bajara boshladilar. Kichkintoylarning mashqlarini ko‘rib, bundan keyingi musobaqlarda ham g‘oliblikni qo‘ldan bermasliklariga amin bo‘ldik.

Gulyuz BAHODIR qizi

## Test savollari

1. *Mushtiparhamo‘zing, buyukhamo‘zing, Kiyinchak ham o‘zing, kuyuk ham o‘zing. Olamga tatirlik suyuk ham o‘zing, Payt keldi aytmoqqa, gapning xonasi, Ey, O‘zbek onasi, O‘zbek onasi!*  
satrлari kимning qalamiga mansub?

- A) Erkin Vohidov  
B) Abdulla Oripov  
D) Muhammad Yusuf

2. *Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti qachon ta’sis etilgan?*

- A) 2000-yilning 1-iyunida  
B) 2001-yilning 11-iyunida  
D) 1999-yilning 10-iyunida

3. *«Nihol» mukofotiga birinchilardan bo‘lib sazovor bo‘lgan ayol xonandaning nomini ko‘rsating.*

- A) Nilufar Rahmatova  
B) Dilfuza Rahimova  
D) A va B javoblari

4. *Qizlar o‘rtasida tennis bo‘yicha «Uimbldon» turniri va AQSH ochiq championati g‘olibi kim?*

- A) Lina Cheryazova  
B) Iroda To‘laganova  
D) Sevara Qodirova

## USTOZLARGA ATALGAN SOVG‘A

Fasllar kelinchagi bahor kirib kelishi bilan sevimli bayramlarimiz birin-ketin nishonlana boshlanadi. Bu bayramlar ichida 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni alohida ajralib turadi. Shuning uchun ham bu bayramni sinfdoshlarimiz bilan noan‘anaviy tarzda nishonlamoqchimiz. Hazil-mutoyibaga boy bo‘lgan sahna ko‘rinishlarimizni sinf rahbarimiz Dilfuza opa Mirzayeva hamda boshqa ayol ustozlarimizga bayram sovg‘asi sifatida taqdим etamiz. Yashirincha tayyorlayotgan sovg‘amiz ustozlarimizga manzur bo‘ladi, deb o‘ylaymiz.

Dilrabo MUXTOROVA,  
229-maktabning  
9-sinf o‘quvchisi



Bilasizmi bolalar, bizning o‘qituvchimiz Rohila opa Muhammadjonova haqiqiy sehrgarlar. Ko‘zimizga qarab turib yolg‘on gapirayotganimizni bir zumda bilib oladilar. Misol uchun, sinfdoshlarimizdan biri darsga kelmay qoldi, deylik. Keyingi darsda u uy vazifasini tayyoramay kelgani uchun bahona qidira boshlaydi. Bahonasini ustozga aytib bo‘lganidan keyin, Rohila opamiz unga:

— Uy vazifasini tayyoramay kelish ayb emas, lekin sababini bekitib yolg‘on so‘zlash katta ayb hisoblanadi, — deydi.

Bu gaplardan uyalib qolgan sinfdoshlar boshqa yolg‘on so‘zlamaydigan bo‘ldik. Bundan ustozimiz juda xursand bo‘lyaptilar.

Biz rus sinfida o‘qisak ham, «Tong yulduzi» gazetasi bilan har hafta tanishib



## O‘QITUVCHI

boramiz. Shu sababli, ustozimizni xotin-qizlar bayrami bilan sevimli gazetamiz orqali tabriklab, bizga berayotgan tarbiya va bilimlari uchun rahmat aytmoqchimiz.

Toshkent shahridagi 51-maktabning 2-«V» sinf o‘quvchilar

«Qishlog‘im – qalb ardog‘im» tanloviya


## MO‘JAZ

Bu so‘z zamirida olam-olam ma’no yotadi. Vatan deganimizda ko‘z oldimizda eng avvalo onamiz gavdalanadi. Chunki ona farzandiga bor mehrini bag‘ishlaydi.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin barcha sohalarda o‘zgarishlar ro‘y berdi. Qishlog‘imning nomi «Setalon». Unda maktab, bog‘cha va kasalxona joylashgan. Yangi poliklinika va sport maydoni binolari qad ko‘tardi. Qishloqda biz o‘smirlar uchun katta imkoniyatlar eshigi ochilgan. 2008-yil qishlog‘imizda yangi kasb-hunar kolleji qad rosladi. Bundan barcha o‘quvchilar mammun.

Qishlog‘imiz juda chiroqli. Bahor kelishi bilan umumuxalq hasharlari tashkillashtiriladi. Bu hasharda barchamiz faol ishtirok etamiz. Maktab va bog‘chalarda mevali va manzarali daraxt ko‘chatlari o‘tkazamiz.

Qishlog‘im haqida o‘ylaganimda qalbimda g‘urur va iftixor yanada jo‘sh uradi. Bu jo‘shqinlik sabab dilimda go‘zal misralar sayqallanadi va shu misralarni oq qog‘ozga solaman.



## Sensiz juda zerikdim, ona!

*Salom, qishlog seni sog‘indim, Quchog‘ingda yayragan zamon, Uchib keldim bag‘ringga yana. O‘zga yurtdan mehr olmadim. Olislarda mehringni sezdim, Yo‘iga chiqdim yo‘lingni izlab, Sensiz juda zerikdim, Ona! Oxir yetdim orziqib senga, Olisdaman, xayolim senda, Kirib boray qo‘yiningga yayrab, Bir lahza ham unutolmadim, Peshvoz chiqqin qishlog‘im menga!*

Dilnoza NASIMOVA,  
Buxoro viloyati, G‘ijduvon  
tumanidagi 12-maktab o‘quvchisi



2009

Tong yulduzi  
9-mart

## «O'tkan kunlar»ning kulgili joyi bormi?»

Layli zotidan esam-da, dilda Majnuncha havo,  
Tog'u tosh kezgum kelur, lekin yo'lim to'sgay hayo...

...Shoh qizi bo'lsam-da, qildim faqr yo'lin ixtiyor  
Bas, menga bu zebi-ziyatkim, otim Zebbunniso.

bo'lsa arziyi. Ular shoh qizi bo'lsalar-da, kamtar, oliyanob fazilatlari ayollardan bo'lgan ekanlar. Buyuk momolarimiz bajargan ishlarni bugungi kunda ham davom etirayotgan zamonamizning ijodkor, tadbirkor ayollarini ham bisyor. Ayni paytda zamonamiz xotin-qizlarining qo'l urmagan sohasi yo'q. Mustaqillik nashidasini surib, uni madh etuvchi ayol shoiralarimiz Oydin Hojiyeva, Sharifa Salimova, Gulchehra Jo'rayeva, Qutlibeka Rahimboyeva va Kavsar Turdiyeva kabi opaxonlarimiz bugungi kunda yurtimiz ravnaqi yo'lida bor bilim va tajribalarini ayamay kelyaptilar.

### O'RNAK OLSA ARZIYDI

75 bahorni qarshilagan navoiyshunos olima Fozila Sulaymonovadan o'rnak olsa arziyi. Ular mustaqilligimizning ilk mukofoti «Sog'lom avlod uchun» ordeni bilan taqdirlanganlar. Shuningdek, Fransiyaning «Akademiya Palmasi» ordeni sohibasi bo'lganlar. Oddiygina o'zbek qizining ushbu unvonlarga ega bo'lishi eng avvalo, uning mehnatkashligi, o'z Vataniga fidoyiligi, uyqusiz tunlarining samarasidir.

Saida Qulmatova – Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti laureati. U O'zbekiston Davlat Konservatoriyaning Xalq cholg'u orkestri bo'limida tahsil oladi. Andijon viloyati, Qo'rg'ontep tumanida tug'ilgan bu qizimiz san'atga katta qadamlar tashlab kirib keldi. Qo'rg'ontepadagi «Navro'z» ashula va raqs ansamblida qatnashgan. 13 yoshida M.Qoriyoqubov nomidagi yosh ijrochilar ko'rik-tanlovida ishtirot etib, faxrli o'rinni egallagan. 2004-yilda Andijon san'at kollejiga imtiyozli qabul qilingan.

### G'UNCHALAR KURTAK YOZSA

*She'r bitaman osmon orzular qilib,  
She'riyat hayotim, jon-u jahonim.  
Kun kelib men ham zo'r ijodkor bo'lay,  
Ruhingiz qo'llasın, Zulfiyaxonim.*

## Qizlar Akademiyasi



Go'zal lutf ilo yozilgan ushbu g'azal shoira Zebbunniso momomiz qalamiga mansub. B u y u k momolarimizning ibratlari ishlari siz aziz qizlarga o'rnat

ishlari siz aziz qizlarga o'rnat

Ushbu satrlar tengdoshingiz 7-sinf o'quvchisi Nigoraxon Egamberdiyeva qalamiga mansub. Dadil qadamlar bilan ijod yo'liga kirib kelayotgan Nigoraxon asli Qashqadaryoning Yakkabog' tumanidan. Hozirgi kunda Toshkent shahrining S.Rahimov tumanidagi 133-maktab o'quvchisi. Maktabda a'llo baholarga o'qish bilan birga M.Qoriyoqubov nomidagi 2-san'at maktabida dutor chalish sirlarini o'rganmoqda. Orzulari osmon bu qizimiz yana ingliz tili, bichish-tikish, rus tili o'quv kurslariga ham qatnashib kelmoqda.

Eng avvalo o'qishim darkor,  
Go'zal she'rlar to'qishim darkor.  
Sinovlardan o'tishim darkor,  
Orzumga erishmoq uchun.



Omad seni hech qachon tark etmasin, ijodingga baraka tilab qolamiz. Bahor fasli senga olam-olam quvonch va shodliklar olib kelsin!

Bugun bayram arafasida «Qizlar akademiya»siga yana bir maktub keldi. Maktub egasi Shahlo Imomova Nafis san'at litseyida adabiyot yo'naliishi bo'yicha tahsil olishi, badiiy kitoblarni hech birini goldirmay o'qishi haqida yozibdi:

Bir kuni kutubxonada kitob o'qib o'tirsam, bir qiz kirib keldi va: «Qanday kitob o'qisam bo'ladi?», – deb so'radi.

– «Mehrobdan chayon», «Dunyoning ishlari», «Kecha va kunduz», «O'tkan kunlar»ni o'qing, – dedim.

Qiz esa: «O'tkan kunlar»ni kulgili joylari bormi? – deb qoldi. Axir 11-sinf o'quvchisi, ayniqsa, qiz bola bo'la turib, bu mashhur asarni bilmasa-ya.

Ha, lobar qizlarim, orangizda kitobga mehr bermaydigan, befarq qizlar ham borligi meni juda-juda tashvishga soldi. Axir sizlarga xos bo'lgan kamtarinlik, farosat, nazokat, samimiylilik, mehnatsevarlik oqilalik, uddaburonlik kabi fazilatlar kitob o'qish orqali shakllanadi-ku. Shuningdek, Vatanni sevish, tariximizni ko'z qorachig'ingizdek avaylash kabi nozik hislar qalbingiza joylansa, deymiz.



### «YANGI AVLOD – 2008»

## FORISHLIK G'OLIBLAR



### SHALPANGULOO QUYONCHA

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qalin o'rmonlarning birida bir shalpangquloq quyoncha yashar ekan. U har tongda hayvonlar bilan birga badantarbiya mashqlarini bajarar, yuz-qollarini yuvar ekan-u, lekin tishlarini yuvmas ekan.

Bahor kunlarining birida shalpangquloq quyonchaning tishi qattiq og'rib qolibdi. Tishining og'rig'iga chiday olmay, quyoncha kechasi bilan yig'lab chiqibdi. Ertalab quyonchaning do'stlari olmaxon, tipratikan, toshbaqalar uni tish shifokoriga olib boribdilar. Quyoncha shifokorni ko'rishi bilan:

– Assalomu alaykum, tishim og'rib qoldi, yordam bering, – debdi ingrab.

Shifokor quyonchaning tishini yaxshilab tekshirib ko'ribdi-da, kasal tishlarini davolabdi. Shundan so'ng Quyonchaning tish og'rig'i bosilib, shifokorga rahmat aytibdi. Xursandligidan sakrab-sakrab ketayotsa, shifokor uni va do'stlarini oldiga chaqirib, qimmatbaho maslahatlarini beribdi:

– Tishlaringiz og'rimasligini istasangiz, ertalab va kechqurun tish cho'tkasi bilan tishlaringizni tozalang. Tish cho'tkalarini har ikki oyda almashtirib turishni odat qiling. Tushki ovqatdan so'ng 5-10 daqiqa «Orbit» va «Dirol» kabi saqichlarni chaynashingiz mumkin. Saqichni ko'p vaqt chaynab yurilsa, og'iz bo'shlig'ida haddan ziyod so'lak ajralib, oshqozon-ichak kasalligini keltirib chiqaradi.

Quyoncha, tishlaring mustahkam bo'lishini xohlasang, karam, sabzi, olma, pomidor, bodring, behi kabi meva va sabzavotlarni yeb turgin. Chunki ularning tarkibida ko'plab vitaminlar, mikroelementlar va boshqa muddalar mavjud. Bir yilda ikki marta tish shifokoriga ko'rinib tursang, tishlaring sog'lom va chiroyli bo'ladi.

Shundan so'ng shalpangquloq quyoncha shifokorning barcha maslahatlariga amal qila boshlabdi. Chunki, unga shifokorning karam va sabzi yeb turgin degani juda yoqib qolibdi-da. Shundan buyon quyonchaning tishlari oppoq bo'lib, uni biror marta og'riq bezovta qilmabdi.



Gulfiya Shukurova, 59-maktabning 6-sinf o'quvchisi:

– «Yangi avlod» festivalida laureat bo'ldim. Bundan juda xursandman. Xalqimga kelgusida bundan-da go'zal ishlarni taqdim etaman.

Yutuqlarga erishishimda ustozim, yani otam Yangiboy Shukurovning xizmatlari katta. Chunki otam menga haykaltaroreshlikning sir-sinoatlarini qunt bilan o'rgatib kelmoqda.

Shodiyabegim Sharofiy Ibrohim qizi, 59-maktabning 7-sinf o'quvchisi:

– Festival biz uchun katta ijodiy maktab bo'ldi. Respublikamizda ko'zga ko'ringan san'atkorlar safida turib o'z san'atimizni namoyish etishimiz bizga olam-olam quvonch bag'ishladi. Shu bilan birga san'atning mashaqqatli, mas'uliyatlari ekanligini yana bir bor angladik.

Xumora Xolyigitova, Amir Temur nomli 1-maktabning 8-sinf o'quvchisi:

– Respublika bolalar ijodiyoti festivalida chizgan suratlarim bilan ishtirot etdim va g'olib bo'ldim. Bu muvaffaqiyat meni yangi ijodiy izlanishlar sari yetakladi.

Nozima TURSUNBOYEVA,

Jizzax viloyati, Forish tumani «Kamalak» bolalar tashkiloti raisi

Ertakchi: Munira ALIMOVA,  
Oliy toifali shifokor stomatolog

(Ertak)



**G** Gullar shahri Namanganda Go'zaloy ismli bir qizcha yashaydi. U shahardagi 58-ixtisoslashtirilgan məktəbning 3-«G» sinifida a'llo baholarga o'qiydi. Bog'cha yoshidanoq rasm chizishga ishtiyoqmand bu tengdoshingiz go'zal tabiat manzaralari, multfilm qahramonlari rasmlarini chizishni yoqtiradi.

Chizgan rasmlarini boshlang'ich sinif o'qituvchisi Davidenko Olga Alekseyevnaga ko'rsatib, o'rini maslahatlar oladi.

Barcha qizaloqlar kabi u ham chiroyli ko'yaklarni yaxshi ko'radi. Ularni kiyishnigina emas, yanada chiroyliroq, xushbichimroq qilib yaratish haqida ko'p o'laydi. Ichki bir tuyg'u bilan rang tanlab, zamonaviylik baxsh etishga harakat qiladi.

Go'zaloy hozircha ulg'aygach kim bo'lishini bilmaydi. U xoh musavvir bo'lsin, xoh liboslar yaratuvchisi, o'z kasbining mohir ustasi bo'lishiga ishonamiz.

*Botir RAMAZONOV*

**QUVNOQ**  
Sahifamizda «Rasmlar ko'rgazmasi»ni taşkil qilganimizdan buyon tahririyatimizga kelayotgan rasmlar soni ortgandan ortib boryapti. Tasviriy san'atga oshno qalblarning ko'pligi barchamizni quvontiradi, albatta.

Kuni kecha Farg'ona viloyati, Yozyovon tumanidagi ko'zi ojizlar va zaif eshituvchilar maxsus məktəbi o'qituvchisi Ikromjon Rahmatovdan maktub oldik. Ustoz 7-sinf o'quvchisi Habibaxon Sodiqovaning chizgan rasmlaridan yo'llab, o'quvchisi haqida faxr bilan quydagilarni yozib yuboribdi:

«Habiba eshitmaydi, gapira olmaydi. Lekin ichki hissiyotlarini chizgan rasmlari orqali ifodalaydigan layoqatlari




*Barbo bog'dan bodom terdi,  
Bobosi unga behi berdi.*

*Malika maymunga may-  
munjonni maydalab berdi.*

*O'ychi o'ylab o'y surdi,  
o'yinch'i o'ynab ko'rди.*

*Umidə uzum uzatdi,  
Komila kulib kuzatdi.*



Poytaxtdagi 254-məktəbning 4-«D» sinif o'quvchisi Ruxshona JAMOLIDDINOVA chizgan rasmini shunday nomlabdi.

### CHIROQ O'CHIB QOLGANDA...

To'rt yoshli Shahzod sham yoqayotgan dadasidan so'radi:

— Dadajon, bu nima?

— Bumi, sham, — tushuntirdi dadasi. Chiroq o'chib qolganda uni yoqamiz.

Birozdan so'ng Shahzod ikki yoshli singilchasiga tushuntiryapti:




### QUVNAYMIZ TONGGA

#### QADAR

Bahorni intiq kutib, yo'lidan ko'z olmadik, Sumalak uchun bug'doy undirib hech tolmadik. Tezroq ungin bug'doyjon, nish chiqargin bag'ringdan, Sumalak totli bo'lsin, shira qo'shgin mehiringdan. Sumalak pishiramiz kunduz, kecha, to sahar, Lapar, qo'shiqlar aytib, quvnaymiz tongga qadar. Biqir-biqir sumalak, toshlar urilar qars-qars, U yon, bu yon kavlaymiz, olov yonadi chars-chars. Tayyor bo'lunga qadar, labni yalab turamiz, Saharda mazza qilib, sumalakni «uramiz».

*Mahbuba MUHAMMADOVA,  
Buxoro viloyati, Buxoro tumanidagi 42-o'rta  
ta'lim məktəbinin 9-sinf o'quvchisi*



— Mana bu yonib turgan narsa sham. U o'chib qolsa, chiroqni yoqamiz...

### BOG'LANGAN MASALA

Ur - re, masalani yechdim, — deya qichqirib yubordi Abbas sevinchi ichiga sig'may.

— Masalangizni kim bog'lab qo'ygan ekan, aka? — so'radi ajablanib singlisi.

### tanaffus

qiz. Məktəbda a'lachi o'quvchilardan biri, sinif sardori. Məktəbdagi «Asalarichilik» to'garagiga qatnashadi».

Habibaning chizgan rasmlari



bizga ham juda ma'qul bo'ldi va ushbu sahifamizni uning rasmlari bilan bezatdik.



### TOPIŞ MOQLAR

Kelar olis-olisdan,  
Xizmatlari xolisdan.  
Yerga rohat baxsh etar,  
Ko'k maysalalar raqs etar.

Biliming oshiradi,  
Aqlingni shoshiradi.  
Tilingni qilar burro,  
Nominini topgin darrov.

Shakli biroz dumaloq,  
Ichi esa sariq, oq.  
Yesang, kuchga to'lasan,  
Sog'lom bola bo'lasan.

O'ralgan uzun qo'rg'on,  
Ichida bor zo'r o'g'lon.  
Ko'rib qolsa oq qog'oz,  
Mashqin boshlaydi shovvoz.

*Marg'uba MUHIDDINOVA,  
Zarafshon shahridagi 13-məktəbin  
8-sinf o'quvchisi*

**QIZIQARLI  
MATEMATIKA**

#### 1. YASHIRIN RAQAM

|       |       |
|-------|-------|
| 2*3*  | *778  |
| 45*6  | 65*6  |
| 7*8*  | *32*  |
| 9***1 | 1*9*  |
| 22617 | 23478 |

2. Alisherning opalari nechta bo'lsa, akalari ham, shuncha. Katta opasining singillari soni ukalari sonidan ikki marta kam. Bu oilada nechta o'g'il va nechta qiz bor?

3. Arifmetik amallar va beshta bir yordamida 100 sonini qanday hosil qilsa bo'ladi? Beshta besh yordamida-chi?

*Sayyora ULUG'OVA,  
poytaxtdagi 4-umumita'lim  
məktəbinin 8-sinf o'quvchisi*



**2009** Tong yulduzi  
9-mart

## BUNCHA KENGDIR BU OLAM

Tong chog'i qo'shiq aytib,  
Tog'-adirda kezaman.  
Yuragim parvoz etib,  
Qo'llarimni yozaman.

Buncha kengdir bu olam,  
Yetarmikan ovozim?  
Quyosh nuri – nur qalam,  
Quyosh erur tarozim.

Oqib kelar bag'rimga  
Epkin bo'lib kuy-orom.  
O'rav olar sehriga,  
O'rav olar ehtirom.

Jaranglaydi kunduzim,  
Jaranglaydi kuy jo'shib.  
Uchib borar yulduzim  
Uchib boradi qo'shiq.

Bag'rida baxt eltadi,  
Shu yulduzim – qo'shig'im.  
Baxtliga taxt eltadi,  
Shu yulduzim – qo'shig'im.

Ko'zlarimda nur jahon,  
Ko'zlarimda kuy rangi.  
Qo'shiq bo'lib otar tong,  
Qalbim chertar ohangin.


## TONGDA

Tong otmoqda... ko'kda yulduz  
So'nar ohista.  
Yerda hayot jonlanadi,  
Ranglanar asta.  
  
Tog'lar uzra boshin qo'yib  
Oftobjon, oftob.  
Oppoq tongga ko'mgan ko'yi,  
Dunyoni shu tob.

Zavqu shavqdan nurin yana,  
Sochib yuborar.  
Ona yerim quchog'ini  
Ochib yuborar.

G'olib quyosh ol tongiga  
Tilab baxt-zafar.  
Mehnat, kurash, ish jangini  
Boshlaydi bashar.

Abdulhay NOSIROV



Adiblar bolalarga

## Nn

N harfi oddiy biram,  
Go'yo ko'tarma kran.

Bundoq o'ylab qaralsa,  
Juda aziz bu narsa.  
Urvog'i ham muqaddas,  
Usiz sira kun o'tmas.

(Non)

Suv ustida qalqigan,  
Oq gul bo'lib balqigan,  
Ta'rifiga yo'qdir gap,  
To'yaysan unga qarab.

Birma-bir qo'yib qadam,  
Ko'tariladi odam.  
Bo'lsa ham oddiy yakka,  
Olib chiqar yuksakka.

(Narvon)

Yig'latadi kuylasa,  
O'z navosin so'ylasa.

Nana-nay-nay,  
Na-na-nay,  
Qo'shiq yangraydi tinmay.  
Qo'shiqning so'zin bilmay,  
Qolsang aytgin na-na-nay.

Muz demang u muz emas,  
Shakar emas, tuz emas.  
Sariq muz kabi tusi,  
Juda ham shirin o'zi.

(Novrot)

Shoxdan-shoxga qo'nadi,  
U qayerda tunadi?  
Oyna kabi qanoti,  
Ninachi uning oti.



## «ALFBE»DA NECHTA HARF BOR?

Kavsar TURDIYEVA

Shakli go'yo nosqovoq,  
Terib oldik bir tovoq.

(Nok)



Bobosiga qarindosh,  
Bobosidan ancha yosh.  
Chopar, charchamas sira,  
Shumtaka bu

(Nabira)

U bilan bahor qaytar,  
Qushlar qo'shig'in aytar.  
Doshqozonda sumalak,  
Bayramdan berar darak.

(Navro'z)

O – g'ildirak aylana,  
Quyoshga o'xshar yana.

\*\*\*

Ota-onla boysan,  
Osmonda oftob, oysan.

O dumalab ketibdi,  
Oh, qayerga yetibdi?  
Okeanga, osmonga,  
Turli-turli tomonga.  
Orzusi esa shundoq,  
O harfli so'zlar topmoq.

\*\*\*

O'choq, gaz va tandirda,  
Gulxan yoqsang adirda,  
Gugurtni chaqsang birrov,  
Lovullar nima darrov?

Juda beqiyos,  
Ko'k dengizga mos.



Boshimiz uzra  
Unda oy suzar.



Sening eng yaqin do'sting  
Bilintirmas kam-ko'sting.  
Sen u uchun yagona,  
Budir mo'tabar

(Ona)

Sening rasmimg unda bor,  
Qarasang bo'lar tayyor.

(Yil, oylari)

Bir ona bolalari,  
Aylanib kelar bari,  
Soni ham emas chakki,  
Uch, to'rt emas, o'n ikki.

(Pashsha)

U yozma shakli holda,  
Ko'rinar go'yo bolta.

(Yil, oylari)

Yuringlar temir izda,  
Biz ketamiz poyezdda.  
Pish-pish chiqarib ovoz,  
Uni tortar parovoz.

(Pilla)

Suvda suzsa hamma shod,  
Olib ketar paroxod.

(Pilla)

Po'sht-po'sht  
Qani tez qoching,  
Aravaga yo'l oching.  
Pish-pish, ey, nodon mushuk,

Har yerga tiqma tumshuq!  
Pi-pi-pi deydi jo'ja  
Menga suv bering picha.  
\*\*\*

Menga ko'plar xaridor,  
Nomim senyor

Meni derlar oq oltin,  
Nega? – deb so'rab qolding.  
Oq tolalarim behad,  
Oppoq oltindan qimmat.

Qo'yaydi sira  
O'ta sur, xira.  
Juda yoqimsiz  
Uni haydang tez!  
Hasharot o'sal,  
Har joyda azal,  
Tarqatar kasal.



Soyabondek ochilib,  
So'ng ketmayman sochilib.  
Asta yerga qo'naman,  
Qani aytin, nimaman?



Qurtlar ovqat so'radi,  
Rosa ipni o'radi.  
Kiysin deb atlas ko'ylak,  
Bizga beradi ipak.

Sanchqi, pichoq qoshiqlar,  
Ba'zan oshiql-moshiqlar.  
Pishiqlar albatta Yasalgandir  
(po'latdan)

Davomi bor.

*O, bolalik seni sog'indim shu on,  
Bir bora qayrilib boqqin men tomon!*

## VOMGIR YOG'AR



*Qizlar mushoirasi*



Yomg'ir mayin yog'ar, shitirlab yog'ar,  
Ilk sevgini yodga solar nogahon.

Ishq umrbod yashaydi navo bo'lsa gar,

Sevgidan yaralgan jumlayi jahon.

Dildagi g'uborni yuvib yog'adi,  
Butun borliqni u sevib yog'adi,  
Qizg'aldoqlar terib adashib qolgan,  
Qo'ng'ir soch qizchani quvib yog'adi.



## OFTOB

Oftob, oftob, oftobjon,  
Chiqaqolgin, chiq chaqqon.  
Kulib chiqsang har qachon,  
Olam bo'lar charog'on.

Tinmay nuring sochaver,  
Bahru dilim ochaver.  
Barcha quvnab rahmat der,  
Yashnar tuproq, ona yer.

Quyoshginam mehribon,  
Sendan unar rizqu non.  
Tafting sezar har inson,  
Quyoshli O'zbekiston.

Lolaxon USMONOVA,  
Urganch shahridagi  
22-maktabning 8-sinf o'quvchisi

Oltin bolaligim, sho'x bebosligim,  
Oppoq bulutlarning bag'rida qoldi.  
Erkagina, injiq, shaddod yoshligim –  
Quvnoq yillarimni olib yo'qoldi?

O, bolalik seni sog'indim shu on,  
Bir bora qayrilib boqqin men tomon!  
Yo'lingga qalbimdan gullar sochaman,  
Men seni kutaman, quchoq ochaman...

Dilnavoz SAIDOVA,  
Jizzax viloyati, Zomin tumani  
Abdulla Qahhor nomi  
60-o'ria maktabning II-sinf o'quvchisi

Mafguna OCHILOVA,  
1-akademik lisey o'quvchisi  
Qarshi Davlat universiteti qoshidagi





Sinfoshimiz Shohsanam sportchi qiz. Unga havasimiz keladi. Hozirgacha mifiktab, tuman, viloyat va Respublika musobaqalarida qatnashib champion bo'ldi.

U 2003-yili mifiktabimizda ochilgan kikboksing to'garagiga a'zo bo'lgandi. Biz o'shanda unga: «Mifiktabimizda sport zali bo'lmasa, qanday qilib musobaqaqlarga qatnashasan, bekorga vaqtin ni o'tkazmasang-chi», – degandik. Ammo, Shohsanam gaplarimizga parvo qilmadi. Mashg'ulotlarga o'z vaqtida qatnab yuraverdi.

qatnashgan dugonamiz poytaxtdan mifiktabga oltin medal bilan qaytdi. 2009-yilning yanvar oyida championimiz O'zbekiston kikboksing Federatsiyasi tomonidan o'tkazilgan kikboksing bo'yicha ochiq «Mega-

aytishicha, mifiktabimizda Shohsanam kabi iste'dodlar ko'p ekan...

Ha, aytgancha, tinib-tinchimas sportchi sinfdoshimiz ayni paytda navbatdagi katta musobaqaqlarga tayyorgarlik ko'rmoqda.

B i z  
Shohsanamni 8-  
Mart – Xo-  
tin-qizlar  
bayrami  
b i l a n  
t a b r i k -

laymiz. Mart oyida bo'lib o'tadigan musobaqalar unga medallar shodasini taqdirm etaversin!

*Shahnoza ALIJONOVA,  
Andijon viloyati, Paxtaobod  
tumanidagi 21-umumta'lim  
mifiktabining 8-«A» sinf o'quvchisi*

2005-yilda tumanimizda o'tkazilgan musobaqa unga omad eshigini ochdi. Shundan so'ng, viloyatda bo'lib o'tgan kikboksing bo'yicha saralash bosqichining kuchlilar bahsi Shohsanamni poytaxtga chorladi. 51 kg. vazn toifasida musobaqada

Sport» championatida faxrli 3-o'rin sohibasi bo'ldi.

Bugun mifiktabimizning barcha o'quvchilari Shohsanamni champion qiz, deb atashadi. Jismoniy tarbiya o'qituvchimiz Umidjon Tursunovning

## AYOL

Qirq qo'lli bebah o farishta.

Asotir va rivoyatlarda qayd etilgan metin iroda sohibasi.

Samodek cheksiz va beg'ubor, keng qalb egasi.

Sochi sunbul, yuzi gul, to'lin chehra, ibo, hayo pardasi tortilgan oy malikasi.

Suydek tiniq, daryodek toshqin, Ona-zamindek saxiy, mehr to'la ko'ngil.

U har faslda tiniq, chanqoqni bosguychi obi-hayot, mehr bulog'i.

Mehrni o'zida aks ettirgan go'zal malakdir.

Tabiat rassom, uning nodir asari Ayol – dillar orasida ko'rinasip, qalb qirg'oqlari o'rtasida mustahkam ko'prikdir.



*Ulkhan cho'qqi ustida,  
Ko'rindi oppoq qor.  
Fasli bahor paytida,  
Bermoqda bu bir viqor.*

*Esar mayin shabboda,  
Babra oladi dillar.*

*Muz ostidan ohista,  
Boychechak ko'tardi bosh. Bahordan berar darak,  
Uning tabassumida,  
Aks etdi go'yo quyosh!*

*Jilg'alarining oqishi,  
Bulbullarning xonishi,  
Boychechakning kulishi.*

*Jilg'alarining kuyida,  
Rags tushadi maysalar.*

*Keldingmi sog'intirib,  
Fasllar kelinchagi!  
Majnuntolning shoxida,  
Osilgan gul belanchagi.*

Madina MIRZAQOBILOVA

## Ilhom qanotida

  
*Bobur Ubaydullayev Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumaniga qarashli Istiqbol qishlog'ida tug'ilgan. Endigina 18 bahorni qarshilayotgan Boburning «Mitti yulduz» nomli she'riy to'plami chop etilgan. Respublikamizning talaygina nashrlarida she'rlari, maqolalari muntazam bosilib turibdi. U o'z ijodiga talabchan, shu boisdan ham she'r dan she'rga ijodiy tajribasi ortib, qalami charxlanib bormoqda.*

*Yosh ijodkorning ijodida ona, Vatan, ustoz, tabiat mavzulari yetakchilik qiladi.*

*Yaqinda Bobur O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasi Samarqand bo'limining a'zosi bo'ldi. Bu uning zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklaydi. Kelgusida u tinimsiz o'qib-o'rganish, mashaqqatli ijod kutmoqda.*

*Quyida tengdoshingiz ijodidan namuna o'qiyisiz:*

*Iliq kunlarga yetib,  
Ko'ngillarni shod etib,  
Tabiatni yashnatib,  
O'lkamga keldi bahor.*

*Serjilo kamalakdek,  
Tong qo'ynida malakdek,  
Go'yo yosh kelinchakdek,  
Sepini yoydi bahor.*


*Dala-dashtga bir qarang,  
Xonatlasdek rang-barang,  
Qir-adirlar maysazor,  
O'lkamda yashnar bahor.*

*Jo'shib kuylar bulbullar,  
Ochilar turfa gullar,  
Mayin esadi yellar,  
Qalbimga keldi bahor.*

*Bobur UBAYDULLAYEV,  
T.T.YESI qoshidagi Akademik litseyining 1-bosqich  
talabasi*

«Katta bobo» bekati

## KIYINISH ODOBI



Aziz bolajonlar!

Bugun kiyinish va o'zingizni orasta tutishingiz xususida so'z yuritsak, nima deysiz?

Kiyim kiyishning o'ziga yarasha qonun-qoidalari bor. Unga har doim amal qilishga to'g'ri keladi. Chunki oilada, do'stlaringiz, sinfdoshlarining orasida, xullas, jamiyatda o'zingiz qanday tutishingiz kiyim kiyishingizga bog'liq. Birovlarga qarab, to'n bichmaslik, u yoki bu kiyimni kiyish-kiymaslik o'zingizga bog'liq.

Hadeb yangi ust-bosh talab qilish yaramaydi. Borini yaxshi saqlab, doimo toza tutgan holda kiyib yursa bo'ladi. Buning uchun esa yana takrorlayman, o'zingiz orasta bo'lishingiz, otanonangiz olib bergan kiyimboshni kir qilmay, uni tezda yaroqsiz holga keltirmay, asrab yurish zarur. Mifiktab uchun mo'ljallangan kiyimni sport bilan shug'ullanganda yoki uydagi ust-boshni ko'chaga kiyib chiqish yaramaydi. Agar shunday tartibsizlikka bir bor yo'l qo'ysangiz, unga ko'nikib qolish ham mumkin.

Shuni yaxshi bilingki, odamni uning aql-idroki boshqaradi. Agar inson qanchalik zukko va fikri teran bo'lsa, hech qayerda qiyalmaydi. Har qanday og'ir sharoitda ham to'g'ri yo'l tanlay oladi. Buning uchunko'p o'qish va o'qiganlarni ilg'ash zarur. Bundan tashqari, har doim yoshi ulug'lar so'ziga quloq tutishda hikmat ko'p. Ayniqa, ota-onangiz va ustozlaringiz sizga bu haqda ko'p gapiradilar. Ularning pand-nasihatlari komillikka boshlashini unutmang. Yomon fikrlardan nari yurib, o'zingizni ezgulikka bag'ishlang. Shunda o'z orzu va maqsadingizga erishasiz, bunga ishonchim komil.

Islam USMONOV

## BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR

|                                     |                             |                     |                            |                    |                         |                   |          |   |  |
|-------------------------------------|-----------------------------|---------------------|----------------------------|--------------------|-------------------------|-------------------|----------|---|--|
|                                     |                             |                     |                            | 1                  |                         |                   |          |   |  |
| Qozoq milliy taomi                  | Tik ho-lati aniqlash asbobi | Bog'-lash buyumi    | Zamin-ning qu-ruglik qismi |                    | Ohu bolasi              | Sovrin-dor        |          |   |  |
| Chin, rost                          | Yevropa-dagi ko'l           | Samo-lyot mar-kaksi | May-mun turi               | Ayol ismi          |                         | 2                 |          |   |  |
| 3                                   | Qo-q'oz o'rami              | Biokim-yogar olim   | Nutg tarzi                 |                    | Taom                    | No-mus            |          |   |  |
| So'z turkumi                        |                             |                     | Nazmiy asar                | Musiga asbobi      | Fran-suz shoiri         |                   |          |   |  |
| Inert gaz                           |                             |                     |                            | Bil-yard anjomi    | Uka                     |                   |          |   |  |
| Jomiy asari                         | Somsa turi                  | Qur-bon             | Baraka                     | Ma-qom             | Mah-fiy                 |                   |          |   |  |
|                                     |                             |                     |                            | Kuch bir-lligi     |                         |                   |          |   |  |
|                                     |                             |                     | Nodir metall               |                    |                         |                   |          |   |  |
|                                     |                             |                     |                            | Adir-lik           | Parr-anda oshyonni      | Tarix qaydno-masi |          |   |  |
|                                     |                             |                     |                            |                    | Yuk ko-tarish texnikasi | Yer o'ichovi      |          |   |  |
| 6                                   |                             | To'ti turi          |                            |                    |                         | Oddiy             | Haqi-qiy | 5 |  |
| Qush sirti                          |                             |                     |                            | Asaka avto markasi |                         |                   |          |   |  |
|                                     |                             |                     |                            | Bezak              |                         |                   |          |   |  |
| Ip gaz-la-lama                      | Iltimos-noma                |                     | Uchish quril-masi          |                    |                         |                   |          |   |  |
|                                     |                             |                     | Non turi                   |                    |                         |                   |          |   |  |
|                                     |                             |                     |                            |                    | 7                       |                   |          |   |  |
|                                     |                             |                     |                            |                    |                         | Himo-ya an-jomi   |          |   |  |
| <b>KALIT SO'Z</b> 4 7 5 3 2 5 7 1 6 |                             |                     |                            |                    |                         |                   |          |   |  |

F. ORIPOV tuzdi

Shifokor maslahati

## TERI PARVARISHI



Bu ba'zan yara-chaqalar hosil bo'lishiga, og'ir kasalliklar, teri yallig'lanishiga olib keladi. Ozoda terida kasallik tug'diruvchi mikroorganizmlar teri hujayralari orqali ajralib chiqaradigan maxsus modda ta'sirida nobud bo'lishi aniqlangan.

Ana shuning uchun ham, bolalar, o'z teringizni toza bo'lishini hamma vaqt kuzatib turishingiz kerak. Qishda ham, yozda ham har kuni ertalab odam beligacha yuvinishi kerak. Qo'llar kuniga bir necha marotaba, ayniqsa, ovqatlanish oldidan sovun bilan yuvilishi lozim. Haftada kamida bir marta hammomda issiq suv bilan dushga yoki vannaga tushib yuvinish zarur. Teri shikastlangan vaqtida zararlangan joy atrofiga yod nastoykasi surtish kerak.

Tohir IBRAGIMOV,  
Oliy toifali shifokor, terapevt



## Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga  
qarashli bo'Imagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

**BOSH MUHARRIR:**  
To'lqin HAYITOV

Dizayner va sahifalovchi:  
**Zuhra MUHSIMOVA**  
Navbatchi:  
**Gulyuz ORIFJONOVA**

Gazeta  
O'zbekiston  
Matbuot va  
axborot  
agentligida  
0208-raqam  
bilan 2007-yil  
2-fevralda  
ro'yxatdan  
o'tgan.

**TAHRIR HAY'ATI:**  
G'ayrat SHOUMAROV,  
Svetlana INOMOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinosari),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA

**Manzilimiz:**  
700129,  
Toshkent shahri,  
Navoij ko'chasi, 30-uy.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@mail.ru  
Tel: 244-27-25, 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

Rassom:  
**Feruz MATYOQUBOV**

**«O'zbekiston»**  
nashriyot-matbaa ijodiy  
uyida chop etildi.  
Haftaning  
dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092

Adadi - 68843  
Buyurtma N: J 7023

## FOTOSURATLAR TANLOVIGA



Sumalakni sog'indik juda,  
Sog'ingansiz siz ham hoynahoy.  
Ko'karibdi barq urib qarang,  
Charosoyim undirgan bug'doy.




Florida yarim orolida ajoyib bir daraxt o'sadi.  
Uning mevalari sovundan aslo qolishmaydi.  
Daraxtning mevalari bilan yuvilgan xo'jalik ashyolari  
hamda kiyim-kechaklar tezda dog' va kirlardan toza  
bo'ladi.



### Oyog'i yo'q, ammo chopag'on

U boshqa o'simliklardan farqli o'laroq, ildiz tizimi o'miga maxsus o'simta va o'tkir tikanlarga ega. Qumanjir qum bo'ronlari qattiq shamol esgan tarafga qarab dumalab "sayohatga" chiqadi. Qizig'i shundaki, bu turdag'i qumanjir butun tanasi bilan havodon, unda mavjud bo'lgan hayotbaxsh omillardan oziqlanib o'sadi.



### Pavloniya — polvon o'simlik

Tez o'sishda pavloniyaga teng keladigan o'simlik topilmasa kerak. Chunki u bir yilda yetti quloch bo'y cho'zadi.

### Go'sht o'rnini bosadi

Yaponiyadagi «Kabushikikaisha Akita» firmasi mutaxassislari qo'ziqorinning antiqa navini yaratdilar. Bu nav mazasi, hidi hamda ozuqaviy xususiyatlari bilan xuddi pishirilgan bifshteksni eslatadi. Qo'ziqorin 40–50 kunda yetishtiriladi. E'tiborli jihat shundaki, u vitaminlarga, foydal ma'danlarga boy bo'lib, oqsilli omillarni saqlash borasida go'shtdan aslo qolishmaydi.

